

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

## AL-BUKHARI

Scientific journal

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

## AL-BUKHARI

Scientific journal



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI

# AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinci son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

*Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

*Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor*

Mas’ul muharrir:

*Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

### “Al-Buxoriy”

#### ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Zohidjon Islomov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Shorustam Shomusarov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
4. Durdona Lutfullayeva f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Komiljon Rahimov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
6. Shamsiddin Kamoliddinov t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
7. Xolida Alimova f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
8. Aftondil Erkinov f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
9. Albert Burxanov t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;
10. Samal Tuleubaeva f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
11. Sayfullo Mullodjanov t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;
12. Zilola Xudoyberganova f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;
13. Akram Habibullayev t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;
14. Ashirbek Mo‘minov t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;
15. Murtazo Saidumarov f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.

## MUNDARIJA

### FILOLOGIYA

<b>Murtazo Saydumarov, Homid Abbos Xon</b> “Al-a’sho ko’chasidagi ishq qissalari” romanida an’ana va erkinlik o’rtasidagi ziddiyatlar .....	4
<b>Qurbonov Zayniddin Oltinovich, Oltinova Bahora Zayniddinovna</b> O‘zbek tilida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt sifatida .....	17
<b>Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi</b> Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi dolzarbligi xususida .....	25
<b>Adambayeva Nargiza Kadambayevna</b> Inglizabon tadqiqotlarda XIX asr Xorazm turkiy adabiy manbalari .....	34
<b>Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li</b> Arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishi .....	44
<b>Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich</b> Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloqiy normalarning ifodalanishi .....	57
<b>Xaydarova Munira O‘tkir qizi</b> Xiyazm stilistik vositasining nazariy asoslari.....	70

### TARIX

<b>Арипова Зухра Джахангировна</b> Система образования в медресе «султанья» в Египте .....	80
<b>Tayronov Yoqubjon Rapiqovich</b> XIX asr ikkinchi yarimida Turkistonda mahalliy tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi .....	94
<b>Djurayev Ikrom Nematovich</b> Markaziy osiyoda qadimgi davr ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlari .....	105
<b>Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich</b> O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi: nazariy-metodologik yondashuvlar va akademik A.Asqarov qarashlari .....	115
<b>Kamolov Jahongir Mamasidiqovich</b> Piri Raisning dengizshunoslik asari “Bahriya” bo‘yicha tahlillar .....	125
<b>Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li</b> O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi rivojlanishida moddiy madaniy merosning o‘rni .....	132
<b>Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li</b> Islom manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy bosqichlari ...	143

**O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZI MASALASI: NAZARIY-  
METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA AKADEMIK A.ASQAROV  
QARASHLARI**

**THE ISSUE OF THE ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE:  
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES AND THE  
VIEWS OF ACADEMICIAN A.ASKAROV**

**ПРОБЛЕМА ЭТНОГЕНЕЗА УЗБЕКСКОГО НАРОДА: ТЕОРЕТИКО-  
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ВЗГЛЯДЫ АКАДЕМИКА  
А.АСКАРОВА**

**Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich**

*Oriental universiteti Ijtimoiy - gumanitar fanlar*

*kafedrasi dotsenti,*

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Tel.: +998902764532*

*E-mail: [beksattoroff@gmail.com](mailto:beksattoroff@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi zamonaviy tarixiy-etnologik fan nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda etnogenez muammosini o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy nazariy va metodologik yondashuvlar yoritilib, ularning ilmiy ahamiyati baholanadi. Shuningdek, akademik A.Asqarovning o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va etnik tarkibiga doir qarashlari chuqur tahlil etiladi. Mazkur maqolada akademik A.Asqarov konsepsiyasining o‘zbek xalqi etnogenezi masalasini tadqiq etishdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlab beradi hamda uni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan qiyoslaydi. Maqola natijalari o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *o‘zbek xalqi, etnogenez, etnik tarix, nazariy-metodologik yondashuvlar, akademik A. Asqarov.*

**Annotation:** This article examines the problem of the ethnogenesis of the Uzbek people from the perspective of modern historical and ethnological scholarship. The study analyzes key theoretical and methodological approaches used in the investigation of ethnogenetic processes and evaluates their scholarly significance. Particular attention is paid to the views of Academician A. Askarov regarding the formation of the Uzbek people, their historical roots, and ethnic composition. The article assesses the role and importance of Askarov’s concept in the study of Uzbek ethnogenesis and compares it with contemporary academic interpretations. The research findings contribute to a deeper understanding of the ethnic history of the Uzbek people and provide a solid theoretical and methodological foundation for further studies.

**Keywords:** *Uzbek people, ethnogenesis, ethnic history, theoretical and methodological approaches, Academician A. Askarov.*

**Аннотация:** В статье рассматривается проблема этногенеза узбекского народа с позиций современной историко-этнологической науки. Анализируются основные теоретические и методологические подходы к изучению этногенетических процессов, раскрывается их научное значение. Особое внимание уделено взглядам академика А. Аскарлова на процесс формирования узбекского народа, его исторические корни и этнический состав. Проводится анализ концепции ученого, определяется ее место и значение в исследовании этногенеза узбеков, а также осуществляется сопоставление с современными научными подходами. Полученные выводы могут быть использованы при дальнейшем изучении этнической истории узбекского народа.

**Ключевые слова:** *узбекский народ, этногенез, этническая история, теоретико-методологические подходы, академик А.Аскарлов.*

### KIRISH

O'zbek xalqining etnogenezi masalasi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va etnologiya fanining eng murakkab hamda dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala nafaqat xalqning kelib chiqishi va shakllanish bosqichlarini aniqlash, balki mintaqada qadimdan kechgan etnik jarayonlar, migratsiyalar, madaniy aloqalar va ijtimoiy-siyosiy omillarning o'zaro ta'sirini yoritish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqi etnogenezining ilmiy tadqiqi xalqning tarixiy xotirasi, milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni chuqurroq tushunishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sovet davri va mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnogenezi masalasi turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etildi. Ayrim tadqiqotlarda etnogenez jarayoniga biryoqlama – faqat ko'chmanchi yoki faqat o'troq aholi omillari asosida baho berilgan bo'lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda arxeologik, antropologik, etnologik va yozma manbalarni kompleks tahlil qilishga asoslangan yondashuvlar ustuvorlik kasb eta boshladi. Aynan shunday kompleks yondashuvlar o'zbek xalqining shakllanish jarayonini ko'p asrlik va ko'p qatlamli tarixiy hodisa sifatida talqin etish imkonini bermoqda.

Mazkur ilmiy jarayonda akademik A.Asqarovning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. U o'zbek xalqining etnogenezini mahalliy qadimgi aholi asosida, turli tarixiy davrlarda mintaqaga kirib kelgan etnik komponentlarning uzviy qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab jarayon sifatida izohlaydi. A.Asqarov qarashlari arxeologik va etnologik materiallarga tayangan holda shakllangan bo'lib, ular o'zbek xalqi etnogenezi masalasiga ilmiy xolislik va tarixiylik tamoyillari asosida yondashish zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek xalqining etnogenezi masalasini yoritishda qo'llaniladigan asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni tahlil qilish hamda akademik A.Asqarov qarashlarining ilmiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida A.Asqarov konsepsiyasining zamonaviy tarixshunoslikdagi o'rni va uning o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganishdagi metodologik imkoniyatlari baholanadi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek xalqining etnogenezi masalasi XX asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyo tarixshunosligi va etnologiya fanida muntazam tadqiq etib kelinmoqda. Dastlabki ilmiy izlanishlarda mazkur muammo asosan umumiy tarixiy yondashuvlar doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, keyinchalik arxeologik, antropologik va etnografik ma'lumotlarga tayangan holda kompleks tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu jihatdan, o'zbek xalqi etnogenezi o'rganish jarayonida turli ilmiy maktablar va konsepsiyalar shakllanganini kuzatish mumkin.

Sovet davri tarixshunosligida o'zbek xalqining etnik shakllanishi masalasi sinfiy yondashuv va marksistik metodologiya asosida talqin etilgan. Ushbu davr tadqiqotlarida etnogenezi jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'lab izohlangan bo'lib, ayrim hollarda etnik omillarning murakkabligi yetarlicha hisobga olinmagan. Shunga qaramay, bu davrda to'plangan boy arxeologik va etnografik materiallar keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba vazifasini bajardi.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnogenezi masalasiga yondashuvlarda muayyan metodologik yangilanishlar yuz berdi. Tadqiqotlarda milliy tarixni xolis va ilmiy asosda yoritish, mahalliy etnik jarayonlarga ustuvor ahamiyat berish, shuningdek, qadimgi o'troq dehqonchilik madaniyatlari bilan ko'chmanchi chorvador qabilalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kompleks tarzda tahlil qilishga intilish kuchaydi. Bu jarayonda arxeologiya, antropologiya, etnologiya va yozma manbalar ma'lumotlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda tadqiq etish tamoyili keng qo'llanila boshlandi.

O'zbek xalqining etnogenezi muammosini chuqur o'rgangan yetakchi olimlar orasida akademik A.Asqarovning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida o'zbek xalqining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon sifatida talqin qilinib, mintaqaning qadimgi aholisining uzviy davomiyligi asosiy omil sifatida ko'rsatib beriladi. Akademik A.Asqarov arxeologik topilmalar va etnografik kuzatishlarga tayangan holda, o'zbek xalqi etnogenezida mahalliy substrat bilan turli tarixiy davrlarda kirib kelgan etnik komponentlarning sintezi muhim rol o'ynaganini asoslab beradi.

Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlarda o'zbek xalqi etnogenezi masalasini turli jihatlardan yoritgan tadqiqotchilar qarashlari ham muhim o'rin tutadi. Ayrim olimlar

etnik shakllanishda turkiy omilning ustuvorligini ta'kidlasa, boshqalari eroniy tilli aholi va qadimgi dehqonchilik madaniyatlarining roliga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur qarashlarning xilma-xilligi o'zbek xalqi etnogenezi muammosining murakkab va ko'p qirrali ekanidan dalolat beradi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqining etnogenezi masalasi hozirgi kunda ham ilmiy bahs-munozaralarga boy bo'lib, uni o'rganishda nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirish, yangi arxeologik va antropologik ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, akademik A.Asqarov qarashlarini zamonaviy ilmiy kontekstda qayta tahlil qilish mazkur masalaning yanada chuqurroq ochilishiga xizmat qiladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda o'zbek xalqining etnogenezi masalasi tarixiy asoslarini o'rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy uslublardan foydalanildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Etnologiya fanining nazariy va metodologik asoslariga ko'ra, har bir millatning shakllanishi uch asosiy bosqichdan iborat bo'ladi. Birinchi bosqich – bu xalqning etnogenezi, ya'ni etnos sifatida shakllanish jarayoni. Etnos vujudga kelgandan keyin, uning ikkinchi bosqichi – el yoki xalq sifatidagi tarixi boshlanadi. Uchinchi bosqichda esa bu etnos rivojlanib, millat darajasiga yetadi va shu bilan uning milliy tarixi yuzaga chiqadi. Har bir bosqich alohida va uzoq tarixiy davrlarni qamrab oladi. Bu nazariya etnologiya fanining umumqabul qilingan qoidasi hisoblanadi va barcha millatlarga taalluqlidir.

Ilmiy jihatdan e'tirof etilgan yondashuvga ko'ra, ma'lum bir xalq yoki millatning etnogenezi qachon boshlanganini aniqlashda, eng avvalo, uning bugungi ona tilining ilk asoslari qay vaqtda yuzaga kelgani asosiy mezon sifatida qaraladi. Ana shu mezon, o'sha xalqning etnogenezi qay davrdan boshlanganini belgilaydi. Agar shunday metodologik yondashuvga tayanadigan bo'lsak, akademik A.Asqarov fikricha, o'zbek xalqining etnogenezi jarayoni taxminan 3,5 ming yil avval, ya'ni so'nggi bronza davrida boshlangan. (Асқаров А., 2015. Б. 640). Chunki miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida, Turkistonning shimoli-sharqidagi Sirdaryoning o'ng sohilidan tortib, Ordosgacha cho'zilgan keng dashtlarda yashagan turk etnosiga mansub qabila va urug'lar O'rta Osiyoga ko'chib kelgan. Bu tarixiy jarayon adabiyotlarda "oriylar migratsiyasi" deb yuritiladi. Shu davrda ular bu hududdagi qadimgi eroniy tilli xalqlar – sug'diylar, xorazmiylar, boxtariylar, chochliklar va praganaliklar bilan etnik aralashuvga kirishgan. Shu bois, aynan shu davrni o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich bosqichi deb hisoblash mumkin. (Асқаров А., 2015. Б. 640).

Ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyo o'zbek va tojik xalqlarining etnogenetik hamda etnik tarixi shakllangan asosiy makon hisoblanadi. Bu ikki xalqning elat sifatida shakllanish jarayonlari aynan shu makonda, o'zaro chambarchas bog'liq va murakkab sharoitda kechgan. Har ikki xalq bir hududda yashab kelgani sababli, ularni qadimdan geografik jihatdan aniq ajratish ancha mushkul.

Akademik A.Asqarovning tadqiqotlariga tayanadigan bo'lsak, til va siyosiy birlik kabi etnologik mezonlarga asosan, tojik xalqining etnogenezi milodiy IX-X asrlarda, o'zbek xalqiniki esa XI-XII asrlarda yakuniga yetgan. Shu davrdan boshlab, bu ikki xalqning etnik tarixi boshlangan, ya'ni ular mustaqil xalqlar sifatida shakllana boshlagan. (Асқаров А., 2015. Б. 641).

O'zbek xalqi tarixidagi elat (xalq) sifatidagi rivojlanish jarayoni XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha davom etdi. Bu davrda Rossiya imperiyasining bosqini natijasida O'rta Osiyoga Rus kapitali kirib kelishi mahalliy jamiyatda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Xususan, mahalliy boylar orasida milliy burjuaziya shakllana boshladi. Ular moliyaviy imkoniyatlarini ishga solib, yangi ijtimoiy harakat – jadidchilikning yuzaga kelishiga turtki berishdi.

Bu yangi burjua qatlami farzandlari Yevropa mamlakatlarida tahsil oldi, u yerdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot bilan tanishdi. Ular o'z vatini ham shunday isloh qilish mumkinligini anglab, o'zgarishlarni ma'rifat orqali boshlash kerakligini tushunishdi. Shu asosda ular mahalliy aholi uchun yangi maktablar ochdi, gazeta va jurnallar nashr etdi, xalqni uyg'otish va o'zligini anglashga da'vat etdi. Keyinchalik bu harakat mafkuraviy va siyosiy kurashga aylandi.

Aynan shu harakatlar – XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy o'zgarishlar – o'zbek xalqining millat sifatidagi tarixi boshlanganini ko'rsatadi.

Turkiston o'lkasida ro'y bergan milliy uyg'onish jarayoni Sovet hokimiyatining jiddiy tashvishga solishi natijasida Sovet hokimiyatining O'rta Osiyo xaritasida o'zbek, turkman, qozoq, qirg'iz va tojik nomlari bilan bir qatorda millatlar nomi bilan ataluvchi yangi davlatlarni rasmiy ravishda tashkil etildi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida, yangi tashkil etilgan respublikalarga – ya'ni o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik xalqlari nomi bilan atalgan davlat tuzilmalariga – tarix yozish jarayoni boshlab yuborildi. Bu jarayonda har bir respublika uchun alohida milliy tarix yaratilishiga harakat qilindi. Natijada, umumiy Turkiston zaminining yagona tarixi va boy madaniy merosi bosqichma-bosqich parchalanib, avlodlar o'rtasidagi an'anaviy tarixiy birlik tamoyillariga putur yeta boshladi.

Yangi tashkil etilgan davlatlarning tarixini yozishni boshlagan sovet tarixchilari nafaqat tarixni muayyan nuqtadan boshlashga intiladi, balki tarixiy davomiylik va mintaqadagi elatlar o'rtasidagi uzviylikni e'tibordan chetda qoldiradi. (Ўзбекистон

тарихи (1917-1991 йиллар), 2019. Б. 77-85). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Sovet hokimiyatining ilk yillarida o'zbek xalqining kelib chiqish tarixini yoritishda asosan o'rta asrlarga oid, ko'p hollarda rivoyat va hikoyalar bilan omuxtalashgan yozma manbalarga tayanilgan. Buning asosiy sababi shundaki, o'sha davrda O'rta Osiyoda arxeologiya, antropologiya, etnografiya, toponimika, numizmatika, geraldika, tarixiy lingvistika kabi tarixiy manbashunos fanlar yetarli darajada rivojlanmagan edi. Aslida esa xalq va elatlarning etnogenezini ilmiy asosda to'liq o'rganish ana shu sohalarining kompleks rivojisiz mumkin emas.

Bundan tashqari, o'sha paytda turkiy tilli aholining etnik tarixi mavjud an'anaviy etnosiyosiy voqelikni hisobga olmagan holda tadqiq etildi. Natijada, o'zbek xalqining kelib chiqishiga oid murakkab masala soddalashtirilib, "o'zbeklar faqat turk qabilalaridan tashkil topgan, ular mintaqaga qadimdan xos, sof turk tilli xalqdir", degan bir yoqlama tezis ilgari surildi. (Асқаров А, 2015. Б. 641). Bu g'oya mintaqada milliy ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi .

Shu bilan birga, bu g'oyaga mutlaq qarama-qarshi yondashuvga ega bo'lgan guruhlar ham paydo bo'ldi. Ular "O'rta Osiyoning qadimgi aholisi faqat eroniy tilli xalqlar bo'lgan, turkiylar esa bu hududga keyin kelgan kelginchilardir", degan tezisni ilgari surdilar. (Асқаров А, 2015. Б. 641).

O'lkada o'tkazilayotgan milliy siyosatni kuzatayotgan islom ulamolari xalqlarning kelib chiqishiga nisbatan o'ziga xos munosabat bildirdilar. Ularning ta'kidlashicha, etnosni shakllantiruvchi asosiy omil til emas, balki dindir. Ulamolarga ko'ra, O'rta Osiyo xalqlari turli tillarda so'zlashishi mumkin bo'lsa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy belgilardan biri – islom diniga mansubligidir. (Asqarov, 2015. Б. 641).

Aslida esa, bu kabi qarama-qarshi fikrlar va qarashlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar hali rivojlanishning bosh bosqichida bo'lgan bir davrda shakllangani bois, muayyan darajada tabiiy edi.

XX asrning 40-yillariga kelib, o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasida sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiy 1941-yilda "O'zbek xalqining etnik kelib chiqishiga doir masalalar" nomli risolasini nashr etdi. Ushbu asarida Yakubovskiy muhim ilmiy xulosalarni ilgari suradi.

Uning ta'kidlashicha, Movarounnahr va unga tutash hududlar hech qachon bo'sh, aholi yashamagan yerlar bo'lmagan. Shayboniyxon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o'zbeklari bu hududlarga kirib kelgunga qadar ham bu yerlarda turkiy va eroniy tilli qabila va elatlar birgalikda, aralash holda yashaganlar. Agar mazkur hududlarda Shayboniyxon kelguncha aholi yashamagan, "kimsasiz" yerlar bo'lganida, o'zbek xalqining tarixi XVI asrdan, ya'ni Shayboniyxondan boshlangan, deb aytish mumkin

bo'lar edi. Ammo tarixiy va arxeologik dalillar bu fikrni rad etadi degan fikrni bildiradi. (Якубовский А.Ю, 1941 Б. 16).

Arxeologik topilmalar va qadimgi yozma manbalar shuni ko'rsatadiki, bu hududlarda eroniy va turkiy tilli aholi uzoq davrlardan beri qo'shnilik va hamkorlikda yashab kelgan. Ular o'rtasida iqtisodiy, madaniy va etnik aloqalar tarixan juda qadimiy ildizlarga ega. Ayniqsa, Buyuk Turk xoqonligining mintaqaga kirib kelishi bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. G'arbiy Turk xoqonligi davrida esa ikki til sohibi xalqlar o'rtasidagi etnomadaniy qorishuv yanada kuchaydi, shu bilan birga, siyosiy va harbiy ustunlik turk qabilalari qo'liga o'ta boshladi.

A.Yu.Yakubovskiyning fikriga ko'ra, ana shu tarixiy voqelik – ya'ni Turk xoqonligi davridan boshlangan etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar – o'zbek xalqining etnogenezi uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Uning ushbu ilmiy konsepsiyasi o'z vaqtida o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasidagi eng to'g'ri va dalilga asoslangan xulosa sifatida e'tirof etilgan. (Якубовский А.Ю, 1941 Б. 20).

A.Yu.Yakubovskiy tomonidan ilgari surilgan etnogenezga oid ilmiy g'oyani keyinchalik arxeolog va etnograf S.P. Tolstov yanada rivojlantirdi. U Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlarida keng qamrovli arxeologik va antropologik tadqiqotlar olib bordi. Bu tadqiqotlar natijasida o'zbek xalqining etnogenezi ildizlari antik davrgacha, ya'ni miloddan avvalgi ming yilliklarga qadimiylashtirildi. (Толстов С.П, 1941 Б. 33).

Ko'p yillardan beri mintaqaning deyarli barcha hududlarida tadqiqot olib borayotgan akademik A.Asqarov ilmiy ishlarida bugungi kunda Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan barcha turkiy va eroniy tilli xalqlar – o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, turkman va qoraqalpoqlar – avtohton, ya'ni ushbu hududning tub aholisidir degan fikrni ilgari suradi. Ularning barchasi tarixiy-etnik jihatdan umumiy ildizga ega. Agar ularni mevali bir daraxtga qiyos qiladigan bo'lsak, bu daraxtning turli payvand shoxlari – bir tomonda tojik, boshqa tomonda o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va qoraqalpoq xalqlaridir. Bu yerda qadim va o'rta asrlarda yashab o'tgan buyuk allomalar, din va ilm-fan namoyandalarining butun Markaziy Osiyo xalqlariga teng darajada taalluqlidir, degan qarashni o'z monografiyalarida keltirib o'tadi. (Асқаров А, 2015. Б. 643).

Zero, mintaqa xalqlarining ajdodlari asrlar davomida o'zaro iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo'lib, aralash holda yashaganlar, tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashganlar. Ular tomonidan yaratilgan boy madaniy meros esa, tabiiy ravishda, barcha xalqlar uchun umumiy, umuminsoniy boylik hisoblanadi. Bu boylik, shuningdek, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan muhim hissasi sifatida ham e'tirof etilgan.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoning bronza davriga oid dasht chorvador qabilalarining moddiy madaniyatidagi kuchli

o'xshashlik mavjud ekanligi, shuningdek, antropologik tipning yakdilligi ham Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan barcha turkiy va eroniy tilli xalqlar bitta o'q tomirga mansubligini isbotlaydi.

Etnogenez jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydigan omillardan biri til omili bo'lib, tilshunos mutaxassislardan A.S.Omonjолоv kushonlar davriga oid bo'lgan "noma'lum yozuv"ni Issiq yozuvi bilan taqqoslab tahlil qildi va uning qadimgi turkiy yozuv ekanini ilmiy asoslab berdi. (Омонжолов А.С, 1975. Б. 61-65).

So'nggi yillarda Xitoy va yapon olimlarining qadimgi Xitoyning 24 sulolaviy tarixi bo'yicha iyerogliflarning asl mohiyati qayta tahlil qilindi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasida N.Ya.Bichurindan farqli ravishda, miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshlarida Janubiy Sibirda "xu", "g'uz", "tiek", "hunnu" kabi etnonimlar mavjud ekanligi aniqlandi. Bu etnonimlarning geografik va madaniy lokalizatsiyasi Yevrosiyaning eneolit va bronza davri arxeologik madaniyatlariga bog'liq ekani ilmiy jihatdan isbotlandi.

Jahon tarixshunosligida g'uz (og'uz), tiek (turk), xu (hun) etnonimlari turk etnik qatlamiga mansubligiga oid tajribalar mavjud. Ular eneolit va bronza davrlarida Tyan-Shan, Janubiy Sibir dashtlari, Yenisey havzalari, Ordosgacha bo'lgan hududlarda yashagan. G'arb olimlari, xususan Rossiyadagi tarixchilar hindu-oriy nazariyasi ta'sirida Yevrosiyo dashtlarining eneolit va bronza davri qabilalari qadimgi eroniy til lahjalarida so'zlashgan, degan fikrni asoslashga uringanlariga qaramay, ularning asosiy dalillari qadimgi xitoy iyerogliflarini chuqur o'rganish natijasida ularning qadimgi turkiy tilda so'zlashganligiga asos borligi aniqlandi.

Arxeologik, antropologik, etnografik, lingvistik, tarixiy toponimika va qadimgi yozma manbalar asosida ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek elatining tarixiy shakllanishi tub joyli turkiy va qadimgi eroniy tilli qabila va elatlarning uzoq asrlar davomida o'zaro etnik qarishuvi asosida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i va unga tutash hududlarda vujudga kelganligi o'z ilmiy tasdig'ini topdi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Mazkur tadqiqot davomida o'zbek xalqining etnogenezi masalasi nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, akademik A.Asqarov qarashlarining ilmiy ahamiyati ochib berildi. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni biryoqlama omillar bilan emas, balki Markaziy Osiyo hududida qadimdan kechgan murakkab etnik, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning uzviy uyg'unligi natijasida vujudga kelgan tarixiy hodisadir.

Tadqiqot natijalari akademik A.Asqarov tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Uning qarashlariga ko'ra, o'zbek xalqi etnogenezi mahalliy o'troq aholi asosida shakllanib, turli tarixiy davrlarda mintaqaga kirib kelgan etnik guruhlar bilan uzluksiz aloqalar va integratsiya

jarayonlari orqali rivojlangan. Ushbu yondashuv o'zbek xalqining etnik tarixini tushunishda tarixiylik va uzviylik tamoyillarining muhimligini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'zbek xalqi etnogenezi muammosini o'rganishda qo'llaniladigan nazariy-metodologik yondashuvlarning evolyutsiyasi aniqlanib, zamonaviy tarixshunoslikda kompleks, fanlararo yondashuvlarning ustuvor ahamiyat kasb etayotgani asoslab berildi. Arxeologik, antropologik, etnologik va yozma manbalarni o'zaro uyg'un holda tahlil qilish etnogenez masalasini yanada chuqurroq va xolis yoritish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **ilmiy-amaliy takliflar** ilgari suriladi:

birinchidan, o'zbek xalqining etnogenezi masalasini o'rganishda fanlararo tadqiqotlarni yanada kengaytirish, ayniqsa zamonaviy arxeologik va bioantropologik tadqiqotlar natijalarini ilmiy muomalaga faol joriy etish maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, akademik A. Asqarov ilmiy merosini tizimli ravishda o'rganish va uning qarashlarini yangi manbalar asosida qayta tahlil qilish zarur;

uchinchidan, o'zbek etnogeneziga oid ilmiy natijalarni oliy ta'lim muassasalarida tarix va etnologiya fanlari doirasida o'quv jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiq bo'lib, bu yosh avlodda tarixiy tafakkur va milliy o'zlikni anglashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur maqolada ilgari surilgan xulosalar va takliflar o'zbek xalqining etnik tarixini chuqurroq o'rganish hamda etnogenez masalasiga oid ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Asqarov A. (2015) Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston. – Б. 641.
2. Asqarov A. (2007) Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент.
3. Asqarov A. (2023) Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Тошкент. – Б. 356.
4. Asqarov A. (2024) Меҳнат ва курашда тобланган ҳаёт онларим. Тошкент: Donishmand ziyisi. – Б. 510.
5. Каримова Д. Машаққатли ва шарафли илм йўли / Ўтмишга назар. № 3. – Б. 50-65.
6. Омонжолов А.С. (1975) Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Алма-Ата. – С. 61-65.
7. Сатторов Н. (2022) Қадимги Турон аҳолисининг ёзма манбаларда акс этиши / ҚарДУ Хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал. – 5/2. – 28-31 бетлар. – <http://xabarlar.qarshidu.uz>.

8. Сатторов Н. (2022) Ўзбек халқи этногенезининг шаклланиш жараёни ҳақида туғилган пантуркизм, паниранизм, панисломизм қарашлари / Марказий Осиё цивилизация тизимида ўзбекистон тарихи ва маданияти Халқаро илмий-амалий конференция. – 14 май. – 272-278 бетлар.

9. Толстов С.П. (1947) Основные проблемы этногенезе народов Средней Азии. СЭ. – № VI-VII. – С. 303.

10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). (2019) 1-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston. – 77-85 бетлар.

11. Якубовский А.Ю. (1941) К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент: Изд.

#### REFERENCES:

1. Asqarov A. (2007) O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Asqarov A. (2015) O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston. – B. 641. (In Uzbek)

3. Asqarov A. (2023) Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. – Toshkent. – B. 356. (In Uzbek)

4. Asqarov A. (2024) Mehnat va kurashda toblangan hayot onlarim. Toshkent: Donishmand ziyisi. – B. 510. (In Uzbek)

5. Karimova D. Mashaqqatli va sharafli ilm yo‘li / O‘tmishga nazar. № 3. – B. 50-65. (In Uzbek)

6. Omonjolov A.S. (1975) Materialy i issledovaniya po istorii drevnetyurkskoy pismennosti. Alma-Ata. – S. 61-65. (In Russian)

7. Sattorov N. (2022) Qadimgi Turon aholisining yozma manbalarda aks etishi / QarDU Xabarleri Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. – 5/2. – 28-31 betlar. – <http://xabarlar.qarshidu.uz>. (In Uzbek)

8. Sattorov N. (2022) O‘zbek xalqi etnogenezinin shakllanish jarayoni haqida tug‘ilgan panturkizm, paniranizm, panislomizm qarashlari / Markaziy Osiyo sivilizatsiya tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 14 may. – 272-278 betlar. (In Uzbek)

9. Tolstov S.P. (1947) Osnovnyye problemy etnogeneze narodov Sredney Azii. СЭ. – № VI-VII. – S. 303. (In Russian)

10. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). (2019) 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston. – 77-85 betlar. (In Uzbek)

11. Yakubovskiy A.Yu. (1941) K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda. – Toshkent: Izd. (In Russian)

## Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan. Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

# AL-BUXORIY AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**  
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**  
Musahhah: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.  
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: [al-buxoriy@orientaluniversity.uz](mailto:al-buxoriy@orientaluniversity.uz)

“AL-BUXORIY” jurnali  
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 17-fevral, 1-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.